AYOLLAR MIGRATSIYASI ZAMONAVIY MEDIANING YETAKCHI MAVZUSI SIFATIDA

WOMEN'S MIGRATION AS A KEY THEME IN MODERN MEDIA DISCOURSE

Muallif: Choriyeva Ozoda[1]
Affiliyatsiya: “Migrant-Info” axborot portali muxbiri[1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23292752

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda ayollar migratsiyasining zamonaviy media makonidagi o‘rni, muhojir ayollar muammolarini OAVda yoritishning kasbiy va axloqiy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, media etikasi, maxfiylik, rozilik, travmaga sezgirlik, neytral terminologiya va raqamli savodxonlik masalalariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Ayollar migratsiyasi, muhojir ayollar, media, jurnalistika, media etikasi, gender, raqamli savodxonlik

ABSTRACT

This thesis examines the role of women's migration in the contemporary media landscape and analyzes the professional and ethical aspects of covering the problems of migrant women in the mass media. Particular attention is given to media ethics, privacy, informed consent, trauma-informed reporting, neutral terminology, and digital literacy.

Keywords: Women's migration, migrant women, media, journalism, media ethics, gender, digital literacy

O‘zbekistonda xalqaro migratsiya jarayonlari o‘zining tebranuvchan va o‘zgaruvchan xarakteriga ega bo‘lib, tashqi mehnat bozori ishtirokchilarining soni hamda gender tarkibi doimiy ravishda o‘zgarib turadi. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining Gazeta.uz nashriga bergan so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil boshida 1 million 340 ming nafar o‘zbekistonlik xorijda mehnat qilgan. Ularning asosiy qismi, ya’ni qariyb 600 ming nafari Rossiya Federatsiyasi hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan aksariyat qismi Qozog‘iston va Turkiya davlatlarida faoliyat yuritgan. Tahlillarga ko‘ra, ushbu 1,3 mln fuqaroning 20 foizini ayollar tashkil etadi [Gazeta.uz, 2025]. Bu ko‘rsatkich nafaqat O‘zbekiston iqtisodiyotiga kelayotgan pul o‘tkazmalari hajmini oshirmoqda, balki jamiyatda jiddiy sotsiologik, psixologik va oilaviy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. O‘zbekistonlik ayol muhojirlar Turkiya, Qozog‘iston va Rossiya kabi an’anaviy yo‘nalishlar bilan birga, BAA, Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, asosan, qariyalar va bemorlarga qarash, mehmonxona xizmati, umumiy ovqatlanish, qishloq xo‘jaligi va to‘qimachilik kabi norasmiy va og‘ir mehnat sohalariga jalb qilinmoqda.

Davlat tomonidan muhojir ayollarni himoya qilish maqsadida so‘nggi yillarda bir qator muhim institutsional qadamlar qo‘yildi. Xususan, Vazirlar Mahkamasi

huzuridagi Migratsiya agentligi tomonidan xorijda qiyin va og‘ir vaziyatga tushib qolgan ayollarga yuridik, psixologik va moddiy (bilet sotib olish, boshpana berish) yordam ko‘rsatish jamg‘armalari ishga tushirildi [O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2025]. Xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari huzurida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning muammolarini o‘rganish va odam savdosi qurbonlariga tezkor yordam berish tizimlari (masalan, qaytish guvohnomalarini bepul rasmiylashtirish) faollashdi.

Ijtimoiy tashabbuslar va xalqaro tashkilotlar hamkorligi ham o‘zbek ayol migrantlarini qo‘llab-quvvatlashda muhim o‘rin tutmoqda. Bu borada Kun.uz nashrida yoritilgan xabarga ko‘ra, O‘zbekistondagi “Hamroh” mikromoliya kompaniyasi va BMTning Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) o‘rtasida muhojirlar oilasidan bo‘lgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus ko‘p bosqichli memorandum imzolangan [Kun.uz, 2025]. Ushbu hamkorlikning tub mohiyati shundan iboratki, u migratsiyani shunchaki ijtimoiy inqiroz yoki yo‘qotish sifatida emas, balki to‘g‘ri boshqarilishi, investitsiya qilinishi kerak bo‘lgan iqtisodiy resurs sifatida ko‘rsatadi. Mazkur dastur doirasida mehnat migratsiyasidan qaytgan yoki migrantlar oilasidan bo‘lgan tadbirkor ayollarga manzilli mikromoliyaviy grantlar ajratish, o‘z biznesini boshlashi uchun mentorlik dasturlarini joriy etish, xorijdan yuborilayotgan pul o‘tkazmalarini oilaviy budjetga to‘g‘ri taqsimlash (moliyaviy savodxonlik) masalalari ko‘zda tutilgan.

Muhojir ayollar huquqlarini ta’minlash va kafolatlash faqatgina davlatlarning qonunlari yoxud deklaratsiyalari bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu murakkab jarayonda ommaviy fikrni shakllantiruvchi ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va ularning vizual-diskursiv yondashuvi hal qiluvchi axloqiy omil hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda, ayniqsa, O‘zbekistonning milliy media makonida ayollar migratsiyasini yoritishning kasbiy va axloqiy prinsiplari xalqaro huquq normalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi qat’iy talab etiladi. Global jurnalistika etikasi va inson huquqlari doirasida muhojir ayollar mavzusini yoritishning quyidagi ajralmas axloqiy-huquqiy tamoyillari shakllangan [Ethical Journalism Network (EJN), 2016]:

“Zarar yetkazmaslik” va qat’iy maxfiylik tamoyili. Jurnalistlar va tadqiqotchilar muhojir ayollarning shaxsini, yuzini, aniq yashash yoki ish joyini ularning xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan holatlarda oshkor qilmasligi qat’iy talab etiladi. Ayniqsa, oilaviy zo‘ravonlik, mehnat ekspluatatsiyasi yoki odam savdosidan qochgan ayollar haqida material tayyorlanganda, maxfiylikning buzilishi ularni nafaqat qabul qiluvchi davlatning huquq-tartibot organlari (deportatsiya xavfi) oldida, balki jinoyatchilar yoxud vatandagi oilasi va mahallasi tomonidan jazolanish (stigma) xavfiga qo‘yadi.

“Rozilik” va travmaga sezgirlik. Muhojir ayolning o‘z voqeasi OAVda qaysi tilda, qanday kontekstda va qanday huquqiy oqibatlar bilan chop etilishini to‘liq anglashi kafolatlanishi kerak. Jurnalist yoki tadqiqotchi og‘ir ruhiy jarohat holatidagi ayolning psixologik zaifligidan o‘z maqolasiga sensatsiya yasash maqsadida foydalanmasligi, shuningdek, suhbatdoshga istalgan vaqtda intervyuni to‘xtatish yoki o‘z fikridan qaytish huquqini so‘zsiz taqdim etishi lozim.

Qurbon qiyofasini yaratmaslik va shaxs irodasini e’tirof etish. Muhojir ayollarni axborot makonida faqatgina “ojiza”, “qutqarilishga muhtoj qurbon” yoki “jamiyatning yuki” sifatida passiv obyekt qilib ko‘rsatish xalqaro media etikasiga zid hisoblanadi. Garchi ular og‘ir sinovlarni boshdan kechirgan bo‘lsalar-da, ularning ijtimoiy faolligi,

oilasini boqish yo‘lidagi matonati va qabul qiluvchi davlat iqtisodiyotiga qo‘shayotgan hissasi muvozanatli tarzda yoritilishi talab etiladi. Xususan, O‘zbekiston mediasi xorijda nufuzli ishlarda ishlayotgan, o‘qib olima bo‘lgan, xorijda tijorat bilan shug‘ullanib katta investitsiyalar kiritayotgan muvaffaqiyatli ayollar obrazini yaratishi, bu orqali jamiyatni ma’rifatga undashi kerak.

Kamsituvchi atamalardan qochish va neytral terminologiya. Shaxsiy fojialarni yoritishda ksenofobiya, irqchilik va gender kamsitishlarni qo‘zg‘atuvchi dushmanlik tilidan qat’iy saqlanish lozim. Xususan, global jurnalistika standartlariga ko‘ra, qonuniy maqomisiz yurgan ayollarga nisbatan jinoyatchilikka ishora qiluvchi “noqonuniy migrant” (illegal migrant) atamasi o‘rniga, inson qadr-qimmatini kamsitmaydigan “hujjatsiz” (undocumented) yoki “tartibga solinmagan maqom”dagi (irregular) migrant kabi xalqaro huquqiy terminlardan foydalanish amaliyoti joriy etilgan.

Raqamli savodxonlik. Huquqiy, til va moliyaviy savodxonligi past bo‘lgan, begona yurtda tilsiz va himoyasiz qolgan ayol migrantlar uchun OAV shunchaki quruq fakt va fojia xabarchisi emas, balki hayotiy “najot darchasi” vazifasini o‘tashi tayin. Shuning uchun media internetdagi ish e’lonlarining haqiqiyligini tekshirishni (raqamli savodxonlikni) o‘rgatishi, har qanday tahliliy yoki tanqidiy material oxirida, albatta, O‘zbekistonning hududdagi elchixonasi manzili, konsullik tezkor telefon raqamlari, inqiroz (boshpana) markazlari, ijtimoiy ishonch telefonlari va bepul yuridik maslahat klinikalari havola qilinishini odat tusiga kiritishi axloqiy jurnalistikaning oltin qoidasi bo‘lishi kerak.

Muhojir ayollar huquqlari global inson huquqlari tizimining eng nozik, eng e’tibor va yechim talab qiladigan segmentlaridan biridir. BMT va XMT hujjatlari, shuningdek, O‘zbekistondagi xalqaro hamkorlikka oid davlat dasturlari barcha siyosiy tuzilmalardan va jamiyatning o‘zidan ayollar migratsiyasiga nisbatan qat’iy hamda obyektiv gender yondashuvni talab qilmoqda. Biroq bu sa'y-harakatlar axborot jamiyati sharoitida ommaviy axborot vositalarining uzluksiz, xolis va tarbiyaviy ishtirokisiz to‘liq muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Ushbu huquqlarni ro‘yobga chiqarishda media nafaqat huquqbuzarliklarni fosh etuvchi “jamoatchilik nazoratchisi”, balki ayollarning imkoniyatlarini va intellektini kengaytiruvchi, ularning jamiyatdagi hurmatga munosib ijobiy qiyofasini tiklovchi tayanch informatsion platforma bo‘lib xizmat qilishi shart. Faqatgina qat’iy xalqaro huquqiy kafolatlar, ochiq axborot siyosati, jamoatchilikning ongini o‘stirish va yuksak axloqiy media standartlarining uyg‘unlashuvigina minglab muhojir ayollarni turli shakldagi ijtimoiy qullik va ekspluatatsiyadan asrab qolish hamda ularning iqtisodiy potensialini millat taraqqiyotiga sarflash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Migratsiya agentligi: Xorijda ishlayotgan o‘zbekistonliklar soni 1,3 milliondan ortiq // Gazeta.uz axborot nashri. – 24.01.2025. URL: https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/24/migratsiya/.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda tashkillashtirilgan tartibda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 252-son Qarori. – 22.04.2025. URL: https://lex.uz/docs/7487706.

3. “Hamroh” va Xalqaro Migratsiya Tashkiloti migrantlar oilasidan bo‘lgan ayollarni qo‘llab-quvvatlaydi // Kun.uz axborot nashri. – 06.11.2025. URL: https://kun.uz/news/2025/11/06/hamroh-va-xalqaro-migratsiya-tashkiloti-migrantlar-oilasidan-bolgan-ayollarni-qollab-quvvatlaydi.
4. Ethical Journalism Network (EJN). Migration Reporting Guidelines: Five core principles for journalists // London: EJN. – 2016. URL: https://ethicaljournalismnetwork.org/resources/publications/moving-stories/migration-reporting-guidelines.